



**QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

QASHQADARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2023- YIL
yanvar-noyabr**

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami **8067,1** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **111,9 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



1652

Bino va inshootlar
qurish

445

Fuqarolik obyektlarini
qurish

567

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 62,0 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan 71,5 % ni tashkil etgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 16,7 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan 121,9 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 21,3 foiz ulushni tashkil etib, 73,4 foizni tashkil etgan.

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.12.2022- y.	01.12.2023- y.	
Qashqadaryo viloyati	3448	2664	77,3
shaharlar:			
Qarshi sh.	883	740	83,8
Shahrisabz sh.	150	124	82,7
tumanlar:			
G'uzor	138	88	63,8
Dehqonobod	141	90	63,8
Qamashi	166	106	63,9
Qarshi	403	301	74,7
Koson	324	276	85,2
Kitob	136	113	83,1
Mirishkor	102	83	81,4
Muborak	160	116	72,5
Nishon	124	82	66,1
Kasbi	163	120	73,6
Ko'kdala	42	37	88,1
Chiroqchi	189	122	64,6
Shahrisabz	122	101	82,8
Yakkabog'	205	165	80,5



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Qarshi sh. (27,6)



Qarshi (11,3)



Koson (10,4)





Qurilish ishlari

2023- yil yanvar-noyabr oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qashqadaryo viloyati	8067,1	2032,6	4132,9	1901,6
shaharlar:				
Qarshi sh.	2443,9	706,0	1496,9	241,0
Shahrisabz sh.	453,6	212,3	193,8	47,5
tumanlar:				
G'uzor	805,4	295,5	357,0	152,9
Dehqonobod	135,4	0,0	41,9	93,5
Qamashi	212,0	0,0	130,0	82,0
Qarshi	596,8	18,0	453,6	125,2
Koson	421,1	28,3	257,1	135,7
Kitob	367,6	0,0	203,1	164,5
Mirishkor	162,0	0,0	63,3	98,7
Muborak	634,4	425,4	135,8	73,2
Nishon	179,9	23,9	92,6	63,4
Kasbi	277,3	0,0	147,3	130,0
Ko'kdala	23,6	0,0	13,5	10,1
Chiroqchi	733,1	298,2	175,2	259,7
Shahrisabz	288,4	0,2	190,8	97,4
Yakkabog'	332,4	25,0	180,6	126,8

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




2023- yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2032,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 139,4 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 4,9 % punktga ko'payib, 25,2 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari

2023- yil yanvar-noyabr oylari uchun




Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Muborak tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 67,0 % i yoki 2022- yilga nisbatan 3,3 marta ko'paydi), Shahrisabz shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 46,8 % i yoki 2022- yilga nisbatan 3,1 marta ko'paydi) va Qarshi shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 28,9 % i yoki 2022- yilga nisbatan 119,8 % ga ko'paydi) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-noyabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 51,2 % i to'g'ri kelib, 2022- yil ko'rsatkichiga nisbatan 2,7 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilga nisbatan 107,0 % ni tashkil etgan holda 4132,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



52,7

2023- yil yanvar-noyabr

54,6

2022- yil yanvar-noyabr




MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Qarshi shahri (1 496,9 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 61,2 %), Qarshi tumani (453,6 mlrd. so'm yoki 76,0 %), G'uzor tumani (357,0 mlrd. so'm yoki 44,3 %) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **23,6 %** ni tashkil etdi yoki **1901,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022- yilga nisbatan **100,3 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **375,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **7691,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,7 %** va **95,3 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-noyabr



Davlat mulki

2023- yil yanvar-noyabr



Nodavlat mulk

Mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari 2023- yil yanvar-noyabr oylarida



	Qurilish ishlari, mlrd so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd.so'm	ulushi,% da
Qashqadaryo viloyati	8067,1	375,2	4,7	7691,9	95,3
<i>shaharlar:</i>					
Qarshi sh.	2443,9	375,2	15,3	2068,7	84,7
Shahrisabz sh.	453,6			453,6	100
<i>tumanlar:</i>					
G'uzor	805,4			805,4	100
Dehqonobod	135,4			135,4	100
Qamashi	212,0			212,0	100
Qarshi	596,8			596,8	100
Koson	421,1			421,1	100
Kitob	367,6			367,6	100
Mirishkor	162,0			162,0	100
Muborak	634,4			634,4	100
Nishon	179,9			179,9	100
Kasbi	277,3			277,3	100
Ko'kdala	23,6			23,6	100
Chiroqchi	733,1			733,1	100
Shahrisabz	288,4			288,4	100
Yakkabog'	332,4			332,4	100



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar-noyabr oyida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **61,7 %** i yoki **4979,3** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

21,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1089,7** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **21,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2192,9** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **44,0 %** ni tashkil etdi.

44,0 %

34,1 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1696,7** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **34,1 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-noyabr oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan,% da
Qashqadaryo viloyati	8067,1	111,9	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	2443,9	108,6	30,3
Shahrisabz sh.	453,6	147,0	5,6
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	805,4	139,4	10,0
Dehqonobod	135,4	105,6	1,7
Qamashi	212,0	106,6	2,6
Qarshi	596,8	103,4	7,4
Koson	421,1	108,0	5,2
Kitob	367,6	91,6	4,6
Mirishkor	162,0	103,0	2,0
Muborak	634,4	182,6	7,9
Nishon	179,9	108,1	2,2
Kasbi	277,3	95,7	3,4
Ko'kdala	23,6	128,1	0,3
Chiroqchi	733,1	89,9	9,1
Shahrisabz	288,4	109,3	3,6
Yakkabog'	332,4	102,5	4,1

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 6,5 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga ko'payib, 59,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 % punktga kamayib, 33,8 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 23,9 % ni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 7,2 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 76,1 % (7,2 % punktga kamaydi).

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari




Kichik korxonalar va mikrofirmalar




Norasmiy sektor

2022- yil
yanvar-noyabr



2023- yil
yanvar-noyabr

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilga nisbatan 7,2 % punktga ko'paydi va 69,3 % ni tashkil etdi. Qolgan 30,7 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilga nisbatan 7,2 % punktga kamaydi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (75) 221 32 47